

ISSN: 2181-4562

DOI Journal 10.56017/2181-4562



IMFAKTOR
PAGES

JOCAA

МАДАНИЈАТ ВА САЊАТ

Journal of Culture and Art

Volume I, Issue 3

MAY | 2023

КУЛТУРА И ИСКУССТВО



ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 3-СОҢ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-3

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-3

ТОШКЕНТ – 2023

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 3 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2023-3>

БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиёв Иқбол

Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, профессор в.б., Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим Козимович

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор

Ходжаметова Гулчира

Илишевна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих фанлари номзоди, профессор

Абдувоҳидов Фахриддин

Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, доцент, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Кадиров Рамз Турабович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна нутқи” кафедраси доценти

Умаров Мамур

Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида

Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси” кафедраси мудир, санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон

Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло

Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил изланувчи (PhD)

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи/Page Maker/Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-ўй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

МАДАНИЯТ ВА САЊЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

RAXMATJONOV Ismoilxon Xayrilloxon o'g'li

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Rejissorlik (kino va televideniya rejissorligi)

mutaxassisligi 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7934833>

REJISSOR VA REJISSURA SO'ZLARINING KELIB CHIQUISH TARIXI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada rejissorlik va rejissura so'zlarining kelib chiqishi. Bu tushunchalarning ommalashishi va ixtisoslik sifatida shakllanishi. XX asr mo'jizasi bo'lmish televideniyaning rivoji haqida.

Kalit so'zlar: rejissor, rejissura, kino, teatr.

РАХМАТЖОНОВ Исмоилхон Хайриллохон угли

Государственный институт искусств и культуры Узбекистана

Режиссура (Режиссура кино и телевидения)

специальность магистрант 2 курса

ПРОИСХОЖДЕНИЕ СЛОВ РЕЖИССЕР И РЕЖИССУРА ИСТОРИЯ ВЫПУСКА

АННОТАЦИЯ

В данной статье происхождение слов режиссура и режиссер. Популяризация этих понятий и их становление как специальности. О развитии телевидения, которое является чудом XX века.

Ключевые слова: режиссер, режиссура, кино, театр.

RAXMATJONOV Ismoilkhon Xayrilloxon ugli

Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Directing (film and television direction)

2nd year master's degree

COMING FROM THE WORDS OF THE DIRECTOR AND DIRECTOR EXIT HISTORY

ANNOTATION

In this article, the origin of the words directing and directorship. The popularization of these concepts and their formation as a specialty. About the development of television, which is a miracle of the 20th century.

Key words: director, directing, cinema, theater.

Bu borliqni san'atsiz tasavvur qilish qiyin. San'atning paydo bo'lish tarixi ham insoniyat paydo bo'lish davrlariga borib taqaladi. San'at kishining extiyojlari tufayli o'zlari bilmagan holda paydo bo'lgan. San'atga qisqacha qilib "Real hayotni badiiy obrazlar orqali aks ettirish" - deya ta'rif berishimiz mumkindir. San'atning ko'p turlari mavjud, masalan: tasviriy san'at, teatr san'ati, musiqa san'ati va eng navqiron va ommalashib borayotgan kino san'atidir. Bu san'at turi XX asrning g'aroyib kashfiyoti bo'ldi. Dastlab kinolar sodda tarzda oddiy matolalarda ovozsiz holda imkoniyatlari keng darajada ochilmagan. Kino san'ati yuzaga kelibdiki, avvalo u bilan bu kasbning ilk namoyondalari "Noprofessional" mutaxassislar shug'ullana boshlagan. Keyinchalik esa kinoning rivojlanish bosqichiga kelib kinoga katta jamoaning mehnati birlashtirilgan.

Kino - bu sentetik san'atdir. Kino butun bir jamoaning tinimsiz mehnati natijasida yuzaga keladi. Unda ishlayotgan har bir mutaxassis o'z sohasini puxta egallagan bo'lishi talab etiladi. Rassommi, bastakormi, grimyormi, operatormi hammasining mehnatini birlashtiruvchi va yuzaga chiqaruvchi bu rejissordir.

Rejissor va rejissura tushunchasi ommalashganiga unchalik ko'p vaqt bo'lmadi. XVIII-XIX asrga kelib teatr asarlarini sahnalashtiruvchi shaxsga ehtiyoj tug'ildi. Avvallari aktyorlar o'zlari o'ynab tomosha ko'rsatar kichik-kichik sahna asarlari o'ynashar edi. Rejissorlik kasbi paydo bo'lganidan keyin teatr san'ati yanada takomillasha boshladi. Teatrda rejissorlar barcha maqsadlarini amalga oshirolmas, imkoniyatlari cheklangan. O'z-o'zidan ma'lumki kino paydo bo'lgach teatr rejissorlarining imkoniyatlari yanada kengaydi teatrda amalga oshirolmagan rejalarini kinoga ko'chira boshladi.

Uyg'onish davrida yevropada sayyor professional teatr bilan birga muallif, aktyor va rejissor vazifalarini o'tagan truppa rahbari yuzaga keldi. 16-17 asrlarda rejissorlik san'atining rivojiga U.Shekspir, J.Molyer, Lope de Vegalar muhim hissa qo'shganlar. Rejissorlik san'ati yuzaga kelishida 19-asrda Meyningen teatr rejissorlari muhim ro'l o'ynaydi. Muallif matniga ehtiyotkorlik bilan qarash, tarixiy muxitni aniq aks ettirish, sahnalarning uyg'unligiga erishish Meyningen rejissurasining ijobiy tomonidir.

Barchamizga ma'lumki, rejissura tushunchasini ommalashganiga uncha ko'p bo'lgani yo'q. XVIII-XIX asrga kelib teatr asarlarini sahnalashtiruvchi shaxsga ehtiyoj tug'iladi. Rejissura ixtisoslik sifatida shakllana boshladi. Avvallari aktyorlar o'zlari o'ynab tomosha ko'rsatar, kichik-kichik teatrlarda sahna lavhalarini ijro qilishar edi. Bu tomoshalarni tashkil qiluvchi ham, sahnalashtiruvchi ham aktyorlarning o'zlari yoki dramaturglarning ishtirokida tayyorlanar edi. Teatr san'atining rivoji rejissura sohasida ham o'z allomalarini paydo bo'lishiga olib keldi. Antuan, Gardon Kreg, Reynxard, Stanislavskiy, Nemirovich-Danchenko, Meyxold, Mannon Uyg'ur, Toshxo'ja Xo'jayev va boshqalar. Teatr san'atining spektakllari yuksak darajada ta'sirli bo'lishi, uning ijodkori, boshqaruvchisi ijodiy jamoani birlashtiruvchi rahnamoga bog'liq. Shu o'rinda tabiiy bir savol tug'iladi. Rahnamo o'zi kim? Rahnamo bu rejissordir.

Ko'p yillar teatr san'atida rejissura mutaxassisligiga ehtiyoj sezilib keldi. Rejissor bu fransuzcha so'z bo'lib, boshqaruvchi, yetakchi, o'zimizning jaydari til bilan aytganda karvonboshi deb ataladi. Jonli kino paydo bo'lganidan keyin, tasvir muhrlanib o'z ifodasini topa boshlaganidan keyin, ayniqsa "kichik ekran" sanati, XX asr mo'jizasi televideniya paydo bo'lganidan keyin mana shu karvonboshiga ehtiyoj yanada kuchaydi. Yirik badiiy asarlarni xoh teatrda bo'lsin, xoh kinoda, xoh televideniya rejissorsiz tasavvur qilib bo'lmay qoldi. Mumtoz dramaturgiya namunalarini, roman, qissa, novellalarning adaptatsiyalarini, tok-shou, hordiq dasturini, yirik tantana va tadbirlarni namoyish qilishda rejissorning o'rni va roli beqiyos bo'lib qoldi. Shuning uchun ham bu kasbni egallaydigan shaxs uning sir-asrorlarini, qonun-qoidalarini, o'zlashtirgan, maktabini o'rgangan bo'lishi lozim bo'lib qoldi [2].

Boshqara olish iqtidori hammaga nasib qilmagan, bu qobiliyatni tarbiyalash, yo'lga solish, yo'naltirish mumkin. Rejissura asoslari shu soha mutaxassisligini egallagan talabalarga yordam beradi. Rejissorlik san'ati hayotni teatr, kino, televideniye san'ati ifoda vositalari orqali tasvirlash badiiy inikosidir.

Fan bilan sanatning tafovuti nima? Aslini olganda fan hayot qonuniyatlarini o'rganadi, isbotlaydi, mantiqiy tahlil qiladi. San'at esa o'sha qonuniyatlarni tasvir orqali badiiy obrazlarda ko'rsatadi, ishontiradi. San'atning ham fanning ham asosiy maqsadi oddiy hayot, inson idroki, uning turmush tarzi hisoblanadi. Faqat san'atning fandan tafovuti shuki, u insonni o'rganadi, insonning his tuyg'ulari, kechinmalari, uning ruhiyati bilan shug'ullanadi. Fan insonning biologik xususiyatlarini, jismoniy tomonlarini, psixik holatlarini o'rganadi. San'at shularning barchasini bir ko'lamda, bir vujud qiyofasini, uning hayotdagi o'rnini ko'rsatib beradi.

XX asr boshlari G'arbiy Yevropa Rejissorlik san'atida formalistik oqimlar hukmron bo'ldi (E.Kreg-Angliya, M.Reynhardt-Germaniya, A.Appia-Shvetsariya va boshqalar). 20-asrda G'arbiy Yevropa Rejissorlik san'ati rus rejissurasi (K.S. Stanislavskiy, V.I. Nemirovich Danchenko, Y.B. Vaxtangov, V.E. Meyerxold, A.Y.Tairovlar) ta'sirida rivojlandi.

Rejissorlik san'ati unsurlari o'zbek an'anaviy teatrida paydo bo'lgan. U korfarmon deb atalgan. 1914-yildan o'z faoliyatini boshlagan Yevropa shaklidagi o'zbek teatrida yozma drama asosida ish olib boruvchi va o'z spektakllarini bino ichida sahnada ko'rsatilishiga mo'ljallab tayyorlovchi malakali rejissorlar yetishib chiqib boshlaydi. Rejissorlik san'atining shakllanish jarayoni A. Avloniy, Hamza, M. Majidov (Uyg'ur) faoliyati bilan bog'liq. Dastlabki sahna asarlari ma'rifatchilik, targ'ibot tashviqot ruhida talqin qilingan. Voqelikni hayotiy vositalar bilan naturalistik yoritish (sahnada rasmana uylar qurish, bug'i chiqib turgan ovqat, meva-cheva ishlatish, buyumlardan foydalanish kabi), personajlar karakterlarini bo'rttirish, ijobiy qahramonlarni birinchi planda ko'rsatish bu davrda rejissorlik san'atiga xos xususiyatlardir.

Moskvada ochilgan o'zbek drama studiyasida M. Uyg'ur, Ya. Bobojonov M. Muhamedovlar aktyorlik mahorati bilan birga rejissorlik san'ati asoslarini ham o'zlashtirganlar. Ular o'sha davr rus teatrida hukmron bo'lgan barcha oqimlarga katta qiziqish bilan qaragan. Ayniqsa, ularga Ye. Vaxtangov va V. E. Meyerxold rejissorlik uslubi kuchli ta'sir ko'rsatgan. Mannon Uyg'ur boshliq eng yaxshi rejissorlar badiiy estetik jihatdan e'tiborli, realistik, kechinma, his-tuyg'ularga asoslangan sahna asarlari ("Hamlet", "Boy ila xizmatchi" singari) yaratish yo'lidan borib, o'zbek rejissorlik maktabiga asos soldilar. Sh. Qayumov, A. Turdiyev, J. Obidov, V. Fayozov, X. Mustafouqlov kabi atoqli aktyorlar ham rejissorlik san'ati rivojiga o'z hissalarini qo'shganlar.

70-yillarning boshlarida teatr sahna madaniyati Yevropa darajasiga ko'tarilib, aholi ma'naviy hayotida muhim o'rin egallaydi. Bu davrda rejissorlardan B.Yo'ldoshev, M.Ravshanov, M.Niyozmatov, R.Hamidov, K.Yo'ldoshev, B.Ixtiyorov va boshqa ish boshladi. Ular turli janrdagi asarlarni saxnalashtirish asosida murakkab uslubiy vazifalarni bajarishga kirishadilar, hayot haqiqatini, inson ichki dunyosini ochishda turli vositalarni ishga solib, badiiy yaxlitlikka erishadilar.

70-yillarning oxiri, 80-yillarning boshlarida rejissorlik san'ati o'zbek teatrida ichdan yangilashga erishadi, eski mavzular, teatr ijrochiligi ham yangicha jaranglay boshlaydi. Ayniqsa, 80-yillar studiyachilik harakati kuchayib, teatrning badiiy salohiyati oshadi. Yosh rejissorlar M.Vayl, N.Abdurahmonov, A.Abdunazarov, O.Salimov izlanishlari e'tiborli bo'ldi. O'zbekistonning mustaqilligidan so'ng teatr san'atida ham tub o'zgarishlar ro'y berdi. Sahnada vositalari bilan tarixni yoritish buyuk ajdodlarimiz-allomalar, shoirlar va davlat arboblari shaxslarini gavdalantirishga e'tibor kuchaydi. Zamonaviy mavzularni aks ettirishda esa milliy vositalar keng qo'llana boshladi. Balet asarlarini sahnalashtirishni baletmeysterlar bajaradi, rejissorlar ularga yordam berishadi. Balet baletmeysterlari orasida I.Yusupov faoliyati diqqatga sazovor.

Rejissorlik san'ati opera (shuningdek, musiqali drama va operetta) da musiqali teatr xususiyatlariga tayanadi. Bu yerda spektaklning asosini musiqa tashkil qilganligi uchun rejissorlar dirijyor va xormeyster bilan hamkorlikda ish olib boradi. Kompozitor partiturasining sahnaviy talqini musiqali teatr rejissurasining asosiy xususiyatidir.

Rejissorlik san'atida qo'g'irchoq rejissyorligi alohida ajralib turadi. Respublika qo'g'irchoq teatri (Toshkent, 1939-yilda tashkil topgan), undan keyin Andijon, Samarqand, Buxoro, Jizzax, Qarshi, Xiva, Termiz shaharlarida barpo etilgan qo'g'irchoq teatrlarida o'nlab rejissorlar bu san'atning saviyasini ko'tarish, nainki bolalar orasida, balki kattalar orasida ham uning nufuzini oshirishda o'z hissalarini qo'shmoqdalar. Qo'g'irchoq teatri rejissurasining rivojlanishida I.Yoqubov, M.Ashurova, S.V.Iogelson, Sh.Yusupov kabi rejissyorlarning xizmatlari alohida.

Radio va televideniyeda ham o'ziga xos rejissorlik san'ati vujudga kelgan. Mustaqillik yillarida maydon tomoshalari rejissorligi shakllandi. Bu sohada faoliyat ko'rsatayotgan B.Yo'ldoshev, R.Hamidov, N.Otaboyev va boshqa katta maydon va amfiteatrlarda tomosha qo'yish bo'yicha katta tajriba orttirishdi.

Kinoda rejissorlik san'ati milliy kino shakllanishi bilan bog'liq holda rivojlana bordi. O'zbek ovozsiz kinosining dastlabki yillarida mahalliy hayotning o'ziga xos tomonlarini yaxshi bilmaydigan, o'z oldiga badiiy jihatdan jiddiy vazifa qo'ymagan rejissorlar filmlar qo'ydi. 30-yillarning boshlarida milliy san'at arboblari (N.G'aniyev, S.Xo'jayev, Y.A'zamov) rejissuraga kirib kelishi munosabati bilan xalq hayotining turli jabhalarini chuqur o'zlashtirish, ijodiy qayta ishlash, uslubiy janr izlanishlar boshlandi. "Yuksalish", "Ajoyib ish", "Ramazon", "Tong oldidan", "Yigit", "Qilich" singari filmlar ishchilarning mehnat kundaligi, harbiy ish, dehqon harakati, o'lka tarixiga bag'ishlandi. Rejissorlar mahalliy aktyorlar (O.Jalilov, E.Hamroyev, M.Qayumov, S.Iskanderov va boshqalar)dan foydalanishni yo'lga qo'yidilar.

Haqiqiy milliy kinorejissuraning yuksalish davri 40-50-yillar bo'ldi. O'sha yillar Ya.Protazanov, A.Usolvev - Garf, N.G'aniyev, K.Yormatov, Z.Sobitov, Y.A'zamov kabi rejissorlar "Tohir va Zuhra", "Nasriddinning sarguzashtlari", "Alisher Navoiy", "Paxtaoy", "Boy ila xizmatchi", "Stadionda uchrashamiz", "Amirlikning yemirilishi" kabi yetuk filmlar bilan tanildilar. Shu davrda o'zbek kinorejissyorlarining obro'si respublikadan tashqariga ham yoyildi.

60-yillar milliy kinorejissurada sifat jihatdan yangi davr boshlandi, "O'zbekfilm"ga yangi yosh mutaxassislar (D.Salimov, R. Botirov, Yu.Stepchuk, A. Qobulov, Q. Kamolova va boshqalar) kelib qo'shildi. Rejissuradan yangi zamonaviy mavzu, yoshlar mavzusi keng o'rin oldi ("Nafosat", "Sevishganlar", "Yigit va qiz", "Mahallada duv-duv gap") va boshqa shuningdek, keksa avlod rejissorlarining yangi izlanishlari ko'zga tashlanadi ("Maftuningman", "Furqat", "Fidoiy", "Natashaxonim" kabi).

Rejissorlarning professionallik jihatidan yuksaklikka ko'tirilishi turli mavzu va janrda ijod etishga keng yo'l ochdi. "Abu Ali ibn Sino", "Dahoning yoshligi" (rej. E.Eshmuhammedov), "Ulug'bek yulduzi" (L.Fayziyev), "Ikki dil dostoni" (K.Yormatov), "O'tgan kunlar" (Y. A'zamov) kabi filmlar o'zbek kinosiga katta shuhrat keltirdi. "Abu Rayhon Beruniy", "Achchiq danak", "Seni kutamiz, yigit" singari filmlar rejissurasi uchun kinofestival kabi anjumanlarda yuqori baholandi va sovrinlar bilan taqdirlandi.

Hozirgi o'zbek kinosi dramaturgiyasidagi murakkab jarayonlar bilan birgalikda turli mazmun va shakldagi janrlar izlanmoqda, rejissura xarakteri o'zgarimoqda, yangi-yangi nomlar kashf etilmoqda (aktyorlikdan chiqqan rejissyorlar va boshqalar). J.Fayziyev, I.Ergashev, Yu.Sobitov, F.Haydarov kabilar shular jumlasidan. Zamonaviy o'zbek kinosida yetakchi janrlardan bo'lgan komediya ("Siz kimsiz?", "Mo'jizalar maydoni", "Yaratganga shukur", "Bomba", "O'rtoq Boykenjayev", "Meshpolvon" va boshqalar) sermahsul bo'lmoqda. "Otamdan qolgan dalalar" (Sh.Abbosov), "Sevgi" (I.Ergashev), "Voiz" (Yu.Rozikry; festival bosh sovriniga ega bo'lgan), "Piyoda" (R. Malikov) va boshqa so'nggi yillar yaratilgan filmlardan namunalardir. Muhsin Qodirov, Jo'ra Teshaboyev [1].

ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

1. О‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma’lumotlaridan foydalanilgan.
2. M.Muxammedov “Rejissura asoslari”.

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 3-СОН

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-3

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-3

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz